

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:15 (67024)

2015-yil

13-aprel



www.tongyulduzi.uz

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

BALALAR KITAPXANASI'

Qoraqalpog'istonlik
yoshlarning quvonchi cheksiz.
Nega, deysizmi?..
Bu haqda 2-betda o'qisiz.

Yorug' manzillarga yo'l olding - shodmiz,
Kelajak oldida mas'ul avlodmiz,
Farzandmiz, ona yurt, senga najotmiz,
Faqt bizga ishon, ishongin, Vatan!

Mamlakatimizda har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelina-yotgan «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rrik-tanlovi Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 8-umumta'lim maktabining fransuz tili o'qituvchisi Dildora Rasulova «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi - 2015», deb e'tirof etildi.

(Davomi 2-betda)



O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim hayoti va ijodi haqidagi filmda uning bolaligi obrazini yaratgan qizaloq e'tiborimni tortdi va u bilan yaqindan tanishish istagi tug'ildi. Samirabonu ismli bu qiz latif shoira-mizning evarasi ekanligini bilgach, beixtiyor quyidagi misralar xayolimdan o'tdi:

Mening hayot bog'im qolmas huvillab...

Ko'zlariningda
cheksiz hayajon,
Baxtiyorsan,
Izzatillajon!

4-bet



ZAFAROBODLIK ustozi zafari

(Davomi. Boshi 1-betda)

Tanlovnning birinchi bosqichida 14 nafr qatnashchidan 6 kishi navbatdagi bosqichda ishtirok etish imkoniyatini qo'iga kiritdi. Ikkinchini... Fransuz tili o'qituvchilar bu galgi shart bo'yicha Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 74-umumta'l'm maktabining 5-sinf o'quvchilariga dars berishda o'z mahoratlarni namoyish etishi kerak edi.

Iqtidorli ustozi darsni har doimgiday noan'anaviy tarzda tashkillashtirdi. «So'zlar qutisi», «Eslab qoling», «Bingo», «Qo'ng'iz» hamda «Nomini toping» innovatsion texnologiya asosida qurilgan dars o'quvchilarida katta taassurot qoldirdi. Tahsil natijalarini zafarobodlik o'qituvchining muvaffaqiyatini ko'rsatdi...

Ustozi yutug'i shunda ediki, dars jarayonida o'zi emas, ko'proq o'quvchilarning faoliyoti kuzatildi. Bu esa, o'z navbatida, mavzuning mukammal o'zlashtirilishiga omildir.

O'z fani mutaxassisini sifatida respublikada mutlaq g'olibiliyini qo'iga kiritgan muallima «Fransuz tilida muloqot bo'Imagan sharoitda ta'l'm oluvchi o'quvchilarga xorijiy tilni o'qitishni rivojlantirish» mavzusida tadqiqot ishlini olib borar ekan, faoliyatida yunon faylasufi Epidritning «O'qitish ikki barobar o'qish, demakdir» fikriga amal qiladi. Hayotdagisi shiori: «Bilim faqat undan unumli foydalilanligandagina ahamiyatlidir».

– Bellashuv davomida bir-birlarimizdan alohida jihatlarni o'rgandik, tajriba almashdik. Eng asosiyisi, biz raqib emas, hamkasb sifatida ishtirok etdik, shartlarni bajarishda bir-birimizga ko'maklashdik, – deydi ustozi.

– Bugungi kunda o'z veb-saytiga ega muallima respublikamizdagi hamkasblari metodik qo'llanma va tavsiyalarini taqdim etadi.

Feruza SOYIBJON qizi

Kitobli uy - Quyoshli uy

(Davomi. Boshi 1-betda)

Navqiron Nukus shahrining Istiqlol bolalar yozgi dam olish markazida barpo etilgan «Bolalar kutubxonasi» binosining ochilish marosimiga bag'ishlangan tadbir o'quvchilarning xotirasida bir umr qolsa, ajabmas. Yangi kutubxona barcha shart-sharoitlarga ega. Maskanda 32 ta kompyuter, 19 ta kitob uchun stellajlar o'rnatilgan va barcha kompyuterlarni lokal tarmoqqa ulangan. Kutubxona foyesida Wi-Fi internet zona o'rnatilgan. Zyo maskanining kitob fondini to'ldirish uchun O'zbekiston Respublikasidagi barcha nashriyotlardan 5826 dona kitoblar sovg'a qilindi.

Tadborda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri (v.b.) D.Otarbayev so'zga chiqib, bugungi yoshlar ma'naviyatining shakllanishida kitobning o'rni beqiyos ekanligi to'g'risida alohida to'xtaldi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi a'zosiga, bolalar yozuvchisi A. Atajanov, Nukus shahar

YOSH MUSIQACHILARI MUVAFFAQIYATI

Italiya poytaxti Rim shahrida bo'lib o'tgan «Primavera romana» xalqaro musiqa ko'rik-tanlovida bir guruh o'quvchilarimiz g'oliblikni qo'iga kiritdi.

Tanlovda MDH mamlakatlari, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoydan kelgan yosh musiqa chilar o'z qobiliyatini sinovdan o'tkazdi. Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilar Lola Inkarova, Mariya Vaxrusheva, David Pogosyan fortepano ijrosi bo'yicha, Sulaymon Alimov saksofonda, Lenara Zokirova akademik xonandalik bo'yicha birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Meyirjan Karamanov hamda Jangali Aqlov akademik xonandalik bo'yicha ikkinchi o'ringa munosib topildi.

– Bu o'quvchilarimizning ilk yutugi emas, – deydi maktab direktori Gulnora Nurmatova. – Ular avvalgi yillarda ham Fransiya, Italiya, Chexiya kabi davlatlarda o'tkazilgan yosh musiqa chilar

tanlovlarda sovrinli o'rnlarni qo'iga kiritishgan edi.

Yaqinda Qozon shahrida o'tkazilgan «Живой родник» deb nomlangan VI xalqaro festivalda ham yurtimiz yoshlari munosib ishtirok etdi. Ikki bosqichda bo'lib o'tgan tanlovda qatnashchilar o'z bilim va mahoratini namoyish etdi. Tanlov natijalariga ko'ra poytaxtimizning Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyining 10 nafr o'quvchisi birinchi o'ringa loyiq, de

topildi.

Bularning barchasi mamlakatimizda yoshlar kamoloti, ma'naviyatini yuksaltirish, barkamol insonlar etib voyaga yetkazish yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz mehr va e'tiborning amaliy samarasidir.

Jamshid KAMOL

APREL - MEHNAT TA'LIMI FANI OYLIGI

Buvim bir kuni menga qo'lda tikilgan zar popopli so'zanani ko'rsatib, «Mana buni sening yoshingda o'z qo'llarim bilan tikkaman», dedilar. Uning har bir guliga mehr qo'shib tikilgani bir garashdayoq bilinadi.

Men ham buvim singari chiroli kashtalar tikishni oldimga maqsad qilib qo'ydum. Bu haqda mehnat ta'limi fani ustozimiz Malohat opaga aytganimda, menga yordam berishlarini aytdilar. Mana, bir necha yilda, ustozimiz milliy kashtachilik, munchoqlardan turli buyumlar yasash, pazandachilik, tikish-u-to'qishning sirlarini o'rgatib kelmoqdalar.

– Mehnat ta'limi fani oyligida qo'lda yasalgan buyumlardan ko'rgazma tashkil qilamiz. Tayyorlagan ishlarizing hay'at a'zolari tomonidan baholanadi. Shuning uchun bor mahoratingizni ishga soling, g'olib bo'lish o'z qo'lingizda, – deydi ustozimiz.

Maktabimizda fan oyligi doirasida turli tadbirlar, bellashuvlar o'tkazilishi mehnat ta'limi faniga yanada mehrimizni oshiradi.

Odina SAHOBIDDIN qizi, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'l'm maktabining 8-«A» sinfi o'quvchisi

Kitobli uy - Quyoshli uy



31-Respublika davlat ixtisosla shirilgan umumta'l'm maktabining 9-sinf o'quvchisi G.Ibragimova so'zga chiqib, yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishi, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilayotganini aytib o'tishdi.

– Bugungi tantana kitobsevar o'quvchilar uchun haqiqiy bayramga aylandi. Zyo maskanining Istiqlol bolalar yozgi dam olish markazida bunyod etilishi, bu yerga tashrif buyurgan bolajonlarning ham ma'nani, ham jismonan hordiq chiqarishlarida ko'mak bo'lishiga ishonamiz, – dedi Respublika axborot-resurs markazi direktori Zulfiya Sertiyazova.

Qadimdan ulug'larimiz «Kitobli uy - oftobli uy», deb bejizga aytishmagan, kitobdan taralayotgan ziyo oftob singari kishi tafakkurini yoritib, uni to'g'ri yo'iga boshlaydi, ezgu amallar qilishga undaydi. Mazkur ziyo maskani qoraqalpoq yoshlariga uzoq yillar davomida nur ulashishiga ishonchimiz komil.

Ozoda TURSUNBOYEVA

MENING BILIM MASKANIM

Maktabimizda 446 nafar o'quchilar foydalanishadi.

Ta'lrim maskanimizning 3-sinf o'quchilarini fransuz tilidan «Hirondelle» kitobidan foydalanishadi.

Fransuz tili ularning sevimli mashg'uloti.

Ustozlarimdan Komila Ismoilova, Namroxon Mamatqulova, Umida Yoqubovalovni bilimli, har tomonloma yetuk bo'lib voyaga yetishimiz uchun turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyuştirib, muvaffaqiyatlarga erishishimiz yo'lida timmay izlanadilar. Shu bois maktabimiz o'quchilarini «Bilimlar bellashuvi», «Biz giyohvandlikqa qarshimiz», «Ogoh va hushyor bo'laylik» tadbirleri va fan olimpiadalarida munosib ishtiroy etishyapti.

Men ham doimo a'llo o'qishga, ustozlarim o'gitlariiga amal qilishga intilyapman. Ozod va obod yurtning shunday ta'lum maskanida bilim olayotganidan cheksiz faxlanaman.

Sadoqat SOLIJONOVA,
Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi
30-umumta'lum maktabining 8-sinf o'quvchisi

Suyun amaki

Nozimjon maktabdan quvonib chiqiq, uyiga oshiqli. Do'stlarini kutishga ham toqati yetmadi. Tezroq uyiga borib, ustozining gaplarini onasiga yetkazgisi kelardi. «Mening oilam» mavzusidagi inshosi a'loga baholanibdi. Ustozi, yanayam ko'proq o'qisang yozuvchi yoki katta sho'r bo'lasan, deganida, sindoshlari qarsak chalib yuborishdi.

Katta yo'lidan uyi tomon burilganida, yuragi gupillab ura boshladi. Hozir onasi xursand bo'lib, o'zimning aqli bolam, deb otasiga ham maqtasa kerak. Inshoingni biz ham eshitaylik, deb qayta-qayta o'qitishi aniq.

- Hoy bola, bu yoqqa qara...

Shirin xayollarga cho'mib ketayotgan Nozimjon bu ovozdan cho'chib tushdi. Hayron bo'lib yon tomonga qaradi. Poliz mahsulotlari sotiladigan do'kon oldida Suyun amaki turardi. Nozimjon amakiga yaqinlashib salom berdi.

- Komiljonning o'g'lisani-a? Shundoq tuyulishdagi do'kondan bir quti tamaki olib kelib ber. O'zim boray, desam, do'konni qoldirib ketolmayman.

Nozimjon bir lahma nima devishini bolilmay qoldi. Sotuvchi esa pul uzatib turardi.

- Tamaki mahsulotlarini yosh bolalarga sotish

taqilangan-ku, amaki.
- Meni aytang, indamay beradi, - dedi Suyun amaki qo'lidi pulni Nozimjonning ko'krak cho'ntagiga solib qo'yarkan, - tezroq borib kel.

Nozimjon cho'ntagi dagi pulni olib amakiga uzatdi.

- Boshqa narsani aytangiz, olib kelib beraman. Lekin tamakini emas. Bizning ustozimiz belgilangan qoidalarga qat'iy roya qilishni doim ta'kidlaydilar.

Suyun amakining jahli chiqdi. Bolaning qo'lidan pulni olib, zarda bilan do'koniga kirib ketarkan:

- Otang ishdan qaytayotganida unga atyadigan ikki og'iz gapim bor. Bor, ketaver, - dedi.

Nozimjon g'alati bo'lib qoldi. Bir xayoli do'konga yugurib borib kelib, amakini xursand qilgisi kelsa, bir tomonдан huquq fani ustozining har qanday sharoitda ham qonunga og'ishmay amal qilish kerak, degan so'zlari qulog'i ostida jaranglagandyg' bo'lardi. Uning boyagi shashti yo'qolgan, xuddi sudralgudek bo'lib uyg'a kirib bordi. Hayron bo'lgan onasiga, boshim og'riyapti, dedi-yu, xonasiga kirib ketdi. Xayolidan esa do'konchi amakining gapi ketmasdi. Otasiga aytsa nima bo'larkin? Otasi ishdan keladigan aytdagan gaplari ko'p...



Shular haqida o'ylab yotib, ko'zi ilinganini sezmay qoldi. Bir mahal yo'lakdan otasining ovozi eshitildi.

- Shom mahali uxlamasin, uyg'otinqlar.

- Mazam yo'qroq, deyapti, biroz orom olsin, - dedi onasi.

- Yo'q, hammamiz birga ovqatanamiz, tuyulishdagi do'konchi Suyun amaki o'g'limizni rosa maqtadi. Irodali, o'z so'zidan qaytmaydigan qilib tarbiyalabsiz. O'zimcha bir sinovdan o'tkazmoqchi edim, muvaffaqiyati o'tdi, dedi. Nozimjon tursa, nima bo'lganini o'zi aytil berar. Shu Suyun amakining yaxshi odati bor. Biziylarni o'quvchilik paytlarimiz goh hisobdan, goh tarixdan imtiyon qilib, sinovdan o'tmagana larga doim pand-nasihat qilardi.

Nozimjon shitob bilan o'rnidan turdi. Uning bugun ota-onasiga aytdagan gaplari ko'p...

Yusuf ABDULLAYEV

Bizga maktub yo'llabsiz...

MEHR BULOG'I

Ona! Kechalari ux-lamay bolasiga alla aytil chiqqan bu ulug' zotni qancha ta'riflasak kam.

U allasi bilan farzandi qalbiga ona yurtga mehr-muhabbat tuyg'usini singdiradi. Onalar qalbi quyoshdek taftli. Bu buyuk zot farzandini tarbiyalashda tunlarni tonglarga ulaydi, uning kelajagi porloq bo'lishini o'ylab, tinib-tinchimaydi. Onalar go'zallik va nafosa, vafo va sadoqat, uquv, sabrning timsolidir.

Qalbimiz quyoshi bo'lgan onalarini sevib, ardoqaylik. Ularga munosib farzand bo'laylik. Konadonimiz chirog'i hamisha porlab tursin!

Mavluda ISMATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi
35-umumta'lum maktabining
8-«V» sınıf o'quvchisi



Har tong uyg'organimda, derazamga tushayotgan quyoshning nuri ko'nglimni ravshan qiladi. Ko'tarinki kayfiyat bilan badantarbiya qilib, yuz-ko'limni yuvgach,

BOBOM DUOLARI SABAB...

Doimgidek chiroli salom beraman. Bobom esa har galgidek meni erkalab, duo qiladi. Maktabda a'llo baholarga o'qiyan. O'qituvchilarimning maqtovlari, sindoshlarimning hurmat bilan qarashlari ko'nglimni tog'dek ko'taridi. Men bularning barchasini bobom qilgan duolar tufayli, deb bilaman.

U yumushlariga yordamlashganimdan onam xursand bo'ladi. Tandirda non yopganida, issiq nonning xushbo'y hidi hovlini tutadi. Bularning barchasini zavq bilan kuzatib turgan bobom meni yana alqaydi, o'qishlarimni surishtiradi, kundaligimni tekshirib, o'tilgan mavzular bo'yicha savol-javob qiladi.

Mana shunday chog'larda dono xalqimizning «Oltin olma, duo ol», degan maqolini bot-bot eslayman. Bobomning borligi, olimiz boshi bo'lib sog'-salomat yurishi biz uchun juda katta davlat ekanligini yurak-yurakdan his qilaman.

Chindan ham qarisi bor uyning fayzi ham bo'lak-ch'a. Bobo-buvilar b i z yosh-larni atrof-dagi-i a r g a e'tiborli, mehrli, saxovatli bo'lishga o'rgatishadi. Xayrlar ishlarning boshida turishadi.

Men keksalarini ardoqlagan, e'zozlagan yurt farzandiman. Ota-onam kabi halol mehnat qilib, yoshi ulug' insonlarni qadr lab yashashni, yurt ravnqa uchun tinimsiz mehnat qilishni istayman. Bobomning ishonchini, albatta, oqlayman.

Iroda RAHMATULLAYEVA,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi 3-umumta'lum maktabining «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi



BUV1S1C1 MUNOSIB BO'LSINI!

(Davomi.
Boshi
1-betda)

Mana, o'sha xalqimizning ardoqligi shoirlari Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim yashagan tabarruk xonadon. Darvozadan kirim borar ekanmiz, adibaning kelinlari Riroyaxon aya bizga peshvoz chiqdilar. Yonlarida esa tanish chehra – filmdagi qizaloq bizga kulib turardi.

Poytaxtimizdagi 110-umumta'l'm maktabining 3-sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan o'quvchi shaxmat o'ynashni yaxshi ko'rар ekan. Onasining aytishicha, aql gimnastikasi deya nisbat beriladigan sportning bu turi bilan Samirabonus bog'cha yoshidan boshlab shug'ullanarkan. Birinchi kubogini ham 5 yoshida bog'chada bo'lib o'tgan bellashuvda oлgan. Hozirgacha esa turli musobaqalarda o'nlab medal va diplomlarni qo'liga kiritibdi.

Musiqaga ham ishtiyogi baland Samirabonus bizga yaqinda o'rgangan kuyini chalib berdi. Pianino klavishlari ustida yengil harakatlanayotgan barmoqlariga mahliyo bo'lib, qizchaning iste'dodli ekanligiga amin bo'lamiz. Hozirgi kunda Betxoven, Motsart, Chaykovskiy, Glier, Kornelyuk kabi bastakorlar yaratgan asarlarni zo'r mahorat bilan ijro etayotgan yosh iqtidor egasidan ota-onasi, ustozi Tatyana Chepurnovaning ham umidi katta.

– Nabiramiz hali juda yosh, – deydi Riroyaxon aya nabirasining sochlarni mehr bilan silab. – Avallari, musiqa ustoziga havas qilib o'qituvchi bo'lgisi kelardi, keyin shaxmat bo'yicha murabbiy bo'laman, deb yurdi. Qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, eng avvalo, chin ma'noda komil inson bo'lsin! Buvijonisi Zulfiyaxonimga munosib voris, izdosh bo'lsin!

Bizning ham ezgu-niyatimiz shu: iste'dodli o'g'il-qizlarimiz ko'paysin. Zero, yurtimizda yoshlarning puxta bilim olishlari, o'z iqtidorlarini to'laqonli namoyon eta olishlari uchun barcha sharoitlar muhayyo.

F. JALILOVA

KITUBXONAGA SOVGА

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi

270-umumta'l'm maktabida o'tkazilgan «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» loyihasi asosida tadbir o'tkazildi.

Tadborda so'zga chiqqan rahbar o'rinosbasari Dildora opa Yusupova yoshlar tafakkuri, dunyoqarashi shakllanishida kitobxonlikning ahamiyati kattaligi, bu borada maktab kutubxonasi fondi oyma-oy yangi kitoblar bilan boyib, kitobxonlar sonining oshishiga sabab bo'layotganini alohida ta'kidladi.

Kutubxona mudiri Latifa opa Ergasheva o'quvchilarga kitob tanlashda yaqin ko'makchi.

Tadborda tashkil etilgan Kitob yarmarkasida sutuvga qo'yilgan 1020 dona kitob o'quvchilar tomonidan xarid qilindi. Shu kuni maktab kutubxonasi kitobxonlar tomonidan sovg'a qilingan 300 ta kitob bilan yanada boyidi.

Muzaffar AHMEDOV



ZIYO ULASHTIB...

Yaqinda poytaxtimizdagi Respublika markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasida «Kitob – mo'jizaga chorlaydi» bayram dasturi tashkil etildi.

Ayniqsa, tadbirning birinchi kuni bolalar uchun qiziqarli kechdi. Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'quvchilarining turli badiy chiqishlari, «Yulduz» raqs ansamblı ijrosi yig'ilganlarda katta taassurot goldirdi. Navbatdagi kunda esa maktab o'quvchilarining «Men sevgan mavzu» nomli rasmlar ko'rgazmasi yushtirildi. Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi Z. Zufarov bilan davra suhabati o'tkazilib, o'quvchilarda musavvirlig ko'nikmalari bo'yicha saboqlar berildi. Respublika qo'g'irchoq teatrining spektakli esa bolalarning qizg'in olqishlariga sazovor bo'ldi.

– Toshkent shahri va viloyati hududida yashovchi 4500 dan ziyod ko'rish imkoniyati cheklangan kishilar va ularning ollalariga xizmat ko'satuvchi ushu ziyo maskanimiz ayni paytda shu yo'nalihsdag'i respublikamiz kutubxonalar uchun uslubiy markaz sifatida faoliyat yuritadi, – deydi ushu maskan direktori Mirsardor aka Alimov. – Mazkur tadbir bolalar va ularning oila a'zolari ko'nglida kitobga nisbatan muhabbat uyg'otadi hamda xonadonlarga ma'naviy nurni olib kiradi, deya niyat qilganmiz.

Alisher FAYZULLAYEV



31 yil o'quvchilarga tarix fanidan dars bergan ustozi, hozirda mahalla maslahatchisi Saida Hakimovani ko'pincha o'quvchilar davrasida uchratamiz.

KELING, KO'CHAT EKAMIZ!

Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida «Maktab, mahalla, oila hamkorligi» dasturining amalidagi ijrosi ko'ngildagidek darajada.

«Nayman» mahallasida joylashgan 56-umumta'l'm maktabida tashkillashtirilgan navbatdagi tadbir «Ko'rkam ko'chalar», deb nomlandi.

Tadbir doirasida maktab o'quvchilari mahalla faollari hamkorligida o'zlaristiqomat qilayotgan ko'chalar bo'ylib turli daraxt, gul ko'chatlari o'tqazishdi. Ko'klamga oshufta tabiat bir zumda bahoriy tus oldi. Zamin uzra endigina qadalgan nihollar vaqt kelib, ulkan chinorlar bo'lib, kelajak avlodga xizmat qilishi, shubhasiz.

Sh. SHUKUROVA,
X. SULAYMONOVA

Eng yaxshi g'azalxon

Aziza Haydarova Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi 12-umumta'l'm maktabining 6-sinf o'quvchisi.

Namunali xulqi bilan tengdoshlari orasida ajralib turadigan Aziza barcha fanlarni a'loga o'zlashtiradi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot faniga alohida mehr qo'yan. U boshlang'ich sinfda o'qib yurgan kezlaridayoq turli tanlovlarida muvaffaqiyatlari ishtirot etdi. «Kichik olimpiiadachi», «Ona – mehr bulog'i» ko'rik-tanlovlarida, «Kamalak yulduzları – 2014» bolalar ijodiyoti festivalida «Nazm va nasr» yo'nalihsida 1-o'rinnarni egalladi. Shuningdek, u «Eng yaxshi kitobxon» hamda «Kamalak bilimdonlari» ko'rik-tanlovlarining ham mutlaq g'olib bo'ldi.

Aziza Haydarovaning erishgan muvaffaqiyatlaridan yana biri «Eng yaxshi g'azalxon» bellashuvida tumanda birinchilikni olib, viloyatda faol ishtiroti uchun Navoiy viloyati hokimligi diplomi bilan taqdirlandi.

Yosh ijodkorning she'rlari bilan tanishar ekanmiz, qalb egasining ona yurtga muhabbati samimiy izhorlari aks etadi. Bolalarcha beg'ubor tuyg'ular satrlarga ko'chadi.

VATAN

Bobom bosgan izlarning,
Gardi-tuprog'i Vatan!
Otam aytgan o'gitning,
Asl qaymog'i Vatan!

Har giyohing shivirlab,
Aytadi sirla alla.
Quloqlarga yoqadi,
Misoli qo'shiq, yalla.

Quchog'ingda yosh avlod,
Mudom bilim olamiz.
Erursan obod chaman,
Bizlar gul-u lolamiz!

NURBEK

Lesson 31

Let's learn English!

TRAVEL TO MUSEUM

(Muzeysiga sayohat)

State Museum of History of Temurids opened in Tashkent on 18 October, 1996. The museum was placed in the centre of Tashkent.

From the early days of its existence, the museum has become a centre of scientific thought and education, its exhibits are of great historical value. These include jewellery, weaponry, military attire and regalia, musical instruments, manuscripts, personal effects of Amir Temur, Babur, astronomical instruments of Ulugbek and many other cultural treasures dating back to the Temurids era.

The inner side of the dome is designed in accordance with the best traditions of the eastern architecture. Decorated with refined ganch-carving it is covered with thin layer of gold leaf.

The building has three floors. The ground floor is allotted for office facilities. The first and second floors are at the disposal of the

museum's exposition.

A big picture in miniature style entitled as Great Temur. The picture reflects the life of Amir Temur from his birth till death.

The depository of the museum keeps over 3 thousand exhibits reflecting the history and culture of Uzbekistan, including the epoch of Amir Temur and Temurids that is subdivided into collections on archeology, architectural de'cor, archeological metal, stone, glass, ethnography,



manuscripts and miniature, golden, silver and bronze wares, dishes, jewelry, ceramic items could serve as the other evidence. For instance, the set of arming tools includes chain armor, helmets, maces, pole axes, various arrowheads, and many other things.

TABLE MANNERS (Ovqatlanish odobi)

Dear pupils read and learn the useful advices.



- Never read while eating.
- Do not talk with your mouth full.
- If your food is too hot do not blow on it.
- Try to make as little noise as possible when eating.
- Do not sip (to drink noisily) your soup.

Dinora SHAKIROVA tayyorladi

CHOOSE THE VERBS (Fe'llarni tanlang)

Fill in the missing verbs in the sentences below. Choose from the following and make sure you use the correct tense of the verb. Use each verb once.

answer	knock	speak
cross	live	understand
fail	paint	wear
join	ride	write

1. Do you speak French? Not very well. But I **understand** quite a lot.
2. The safest place to ... a busy road is at a pedestrian crossing.
3. What color shall we ... the bathroom walls? How about blue or dark green?
4. Could I borrow your pen please, Jasur? I have just got to ... this document.
5. ... on the door to see if there's anybody at home.
6. You have to be over eighteen to ... this club.
7. I usually ... jeans and a t-shirt at the weekend.
8. My brother has never learnt to ... a bicycle. He tried once, fell off, and has never tried since.
9. Did you pass your exam? No, I
10. Try to ... all questions, the teacher told the students before the test started.
11. Madina ... in Tashkent now, but she was born in Bukhara.
12. My cousin can ... five languages fluently.

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

THE RESOURCEFUL GAME (Topqirlik o'yini)

Resolve the following rebus.


Find the names of these things in English and put together head letters to make a new word.



Risolat ISMOILOVA

CROSSWORD

The crossword of antonyms or couple words (Juft yoki antonim so'zlar krossvordi).



1. Sell
2. After
3. Question
4. Famous
5. Thin
6. End
7. Unsafety
8. Answer
9. Big.

Nozima YO'L DOSHEVA,
O'ZDJTU qoshidagi
1-akademik litsey o'quvchisi

Ochil TOHIR
HUSHYOR BOLA

- Qilinmagan ish uchun,
Jazo loyiqli, ustoz?
- Yo'q, albatta, sen nechun
Qiziqib qolding, Mumtoz?
- Men uy vazifasini,
Bugun bajarmagandim.
Bilay, deb jazosini,
Shu uchun so'ragandim.

TAJRIBA

O'quvchilarga qarab
Ustoz der: - Shuni biling,
Olmada temir serob,
Ko'proq iste'mol qiling.
Bilag'on sanab o'zin,
O'rnidan turib Akrom,
Bo'lib der ustoz so'zin:
- Ishonmayman sira ham,
Bu to'g'ri emas, axir...
Daraxtlar aro kezib,
Ular ustidan bir-bir,
Ko'rdim magnit yurgizib.
Sinab ko'rdim erinmay,
Tajribamdan o'tmadni.
Men qanchalik urinmay,
Olma qilt ham etmadni.



GULLARNING BALIG'I

Bo'g'ziga qadar doim,
Suvning ichida turar.
Jilmaygancha muloyim,
Gap boshlaydi Nilufar:

- Soyda cho'milsa odam,
Yayrar tana borlig'i.
Bo'lib tetik va bardam,
Yaxshilanar sog'lig'i.

Chindan ma'qul menga ham,
Nilufarning qilg'i.
Sizga ta'rifin aytsam,
U gullarning balig'i.

- Surat, qalamlar qani,
Rasm darsi-ku erta?!

Men gullarning rasmimi,
Chizishim shart, albatta.

Xunobi oshib Zokir,
Baqirar ukasiga.
Bilag'on mitti Shokir,
Shunday der akasiga:

- Bekorlikdan zerikib,
Osmon sari uchibdi.
Ham o'zaro birikib,
Ko'k betini quchibdi.

Ishonmasangiz, qarang,
Bo'yalgan osmon-falak.
Ko'kni bezab yetti rang,
Chiqqan edi kamalak.

Makta-bimizda
adabiyotga
ixlosmand o'quvchi-
larni o'zida jamlagan
«Istiqlol g'unchalar»
to'garagi faoliyat
ko'rsatadi.

G'URUR

Orzular ushalsa, osmon bo'ladi,
Dil dilga qo'shilsa, ummon bo'ladi.
Ezgu bir niyatni ko'zlagan kishi,
Eng suyuk, himmatli inson bo'ladi.

Insonlar qalbida mehr jo'sh ursin,
Hamisha ko'zları quvonchga to'lsin.
Bu yurtda yashagan har bir insoning,
Yuksalsin g'ururi, iqboldi kulsin.

Nasiba JO'RABOYEVA

Quvonarlisi, to'garagimiz a'zosi Nasiba Jo'rabyeva qator ko'rik-tanlovlarda she'riyat yo'naliishi bo'yicha g'oliblikni qo'liga kiritib kelmoqda. Bizning maqsadimiz - iste'dodlarning beg'ubor, samimiy qalb tuyg'ularini yuzaga chiqarish.

O'yaymizki, yillar o'tib, g'unchalar odamlarga go'zallik hadya etishi, tabiiy. Ana shu maqsadning ro'yogba chiqishida yosh qalamkashlarga parvozlar tilab, ijodlaridan namunalar yuboryapman. Zero, ular sizda ham zavq-shavq uyg'otishi, shubhasiz.

Ozod EGAMBERDIYEV,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 18-umumta'lum maktabining
«Istiqlol g'unchalar» to'garagi rahbari

Vatan madhi

Bog' oralab yursam ayni chog',
Mayin shamol yelpidi yuzim.
Ilhom jo'shib, Vatan haqida
She'rlar bitdim, aytdim dil so'zim.

Yulduz OTABOYEVA



GULLAGAN GULISTONIM

Surxondaryom, surxonim,
Men tug'ilgan makonim.
Bag'ringda ulg'aydim shod,
Yashnagini bo'lib obod.

Surxondaryom, surxonim,
Gullagan gulistonim.
Sen jannatning o'zisan,
Onam shirin so'zisan.

Shoshilib oqar, qarang,
Toshqin daryo To'palang.
Bordir Amudaryosi,
Tengsiz mehr ziyosi.

Tog'laridir purviqor,
Bir yonda bobo Hisor.
Surxonim tabiatni,
Yer yuzida ulug'vor.

Ahror ESHMAMATOV,
Surxondaryo viloyati,
Denov tumanidagi
41-umumta'lum maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi

BIZLAR JUDA QUVNOQMIZ

Zukko o'g'il-qizlarmiz,
Quyoshdayin porloqmqiz.
Dunyoda tengi yo'qmiz,
Bizlар juda quvnoqmiz.

Juda chaqqon, epchilmiz,
Doim zafer quchamiz.
Kuchga to'lgan kunimiz,
Osmonlarga uchamiz.

Xalqimizning yuzini,
Doim yorug' qilamiz.
Yurtimiz bayrog'ini,
Samolarga ilamiz.

Mehribonu ABDURAZZOQ qizi,
Toshkent shahri,
Yashnobod tumanidagi
307-umumta'lum maktabining
5-sinf o'quvchisi

QILICHBOZLIK jahon championati yakunlandi

Joriy yil
aprel oyining bi-
rinchi o'n kunligida
poytaxtimizda kadetlar
va yoshlar o'tasidagi
qilichbozlik bo'yicha
jahon championati
bo'lib o'tdi.

Mazkur bellashuvda yosh qilichbozlar nafaqat o'z imkoniyatlarni sinovdan o'tkazishdi, balki do'stona aloqalarni ham o'rnatishdi. Musobaqaning boshida hamyurtlarimizdan bir guruhni imkoniyatni boy berishdi. Kadetlar va yoshlar o'tasidagi jahon championati bahslari davom etar ekan, ayollar o'tasida rapira va erkaklar o'tasida shpaga yo'nalishi bo'yicha bellashuvlarda kuchli 32 talikka kira olgan qilichbozlar orasida jang qilishga muvaffaq bo'lgan sportchimiz Javohir Nurmatovning borligi bizni quvontirdi. U britaniyalik Xarrison Nikolsga yengilan bo'lsa-da, nufuzli musobaqalarda birinchi marta ishtirok

etayotgan vakilimiz uchun bu jarayon katta tajriba vazifasini o'tadi. Shuningdek, 17 yoshgacha bo'lgan yosh qilichbozlar o'tasidagi rapira bellashuvlarda AQSHdan Samuel Moelis 1-o'rin, rossiyalik Grigoriy Semenyuk 2-, Samuelning yurdoshi Jeffri Turett va vengriyalik Tamash Mesarosh uchinchli o'ringa munosib topildi. Qizlar o'rtasida gbellashuvlarda rossiyalik Olga Nikitina bosh sovrinni qo'liga kirdi. U oltin medal uchun kechgan bahsda italiyalik Lyuchiya Lucharinini mag'libiyatga uchrata oldi. Yaponiyalik Misaki Emura hamda yana bir rossiyalik sportchi Aleksandra Klimova shohsupaning uchinchli pog'onasidan joy oldi.

Jahon championatinining oxirgi bahsida oltin medalga da'vogarlik qilgan yetakchi italiyalik yigitlar jamoasi so'nggi finalni ham o'z foydasiga hal etdi. Xitoyliklar 2-, farang yigitlari esa 3-o'rinni egallashdi.

O'z muxbirimiz

AKA-UKA GIMNASTIKACHILAR

Bahorning iliq, farahbaxsh kunlaridan biri. Avtobusda odam ko'p. Bolalar nashrida ishlashim bois, diqqatimni oq ro'mol o'ragan nuroniyl onaxonning ikki nafr shiringina nevaralari bilan suhbatli o'ziga tortdi.

- Ularni avval ham bir necha bor uchratgandim.
- Bu safar esa yaqindan tanishishga jazm etdim.

- Xolida aya Ahmedova nabiralarini poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 14-bolalar va o'smirlar sport maktabi g i m n a s t i k a mashg'ulotlariga olib ketayotgan ekan.

- Nabiralarining kattasi Husniddin Nuriddinov poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 89-umumta'lum maktabining 2-«G» sinfiga o'qir ekan. Olti yoshli Muhiddin ham akasiga havas qilib, yetti oydan beri mazkur sport maktabida murabbiyi Nozigul Murodjonova bilan shug'ullanayotgan ekan.

- To'rt yilda buyon Bobir aka Olimovdan sport gimnastikasi bo'yicha saboq olib kelyapman, - deydi Husniddin. - Bir nechta musobaqlarda qatnashib, diplom va medallar sohibi bo'ldim. Yaqinda Navro'z bayrami munosabati bilan shahar miyosida o'tkazilgan musobaqada ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlardim. Endi esa 13-15-aprel kunlari Navoiy shahrida bolalar va o'smirlar o'tasida o'tkaziladigan musobaqaqa tayyorgarlik ko'yapman.

- Nabiralarim kelgusida mohir sportchilar bo'lib, xalqaro musobaqlarda qatnashib, O'zbekistonimiz sharafini munosib himoya qilishsa, deb niyat qilaman, - deya suhbatga qo'shildi buvi.

- Niyatingiz amalga oshsin. Nevaralarining kelgusida sog'lom, barkamol, yetuk insonlar bo'lib kamol topishi, porloq kelajagi uchun qayg'uradigan sizdekk bobo-momolarimiz omon bo'lishsin!

- Suhbatdoshlarim bilan xayrlashar ekanman, ularغا sihat-salomatiq, Husniddining esa Navoiy shahridan zafar quchib qaytishini tiladim.

Dilorom HOTAMOVA,
muallif olgan surat

ANA BELLASHUV – MANA BELLASHUV

Yaqinda Toshkent davlat Vestminster universiteti sport majmuasida jun-ri-do bo'yicha musobaqa nihoyasiga yetdi. «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro xayriya fondi kubogi uchun tashkillashtirilgan mazkur musobaqada 200 nafardan ziyod sportchilar ishtirok etdi. Musobaqada JAS, Timur, NUR, Taychi kabi qozog'istonlik sport klublari a'zolarining ishtirok bellashuvlarning keskin va murosasiz o'tishini ta'minladi.

Ikki kun davom etgan musobaqada yosh doirasida g'oliblar aniqlandi. Jumladan, 6 – 7 yoshlilar o'tasida 1-o'rin Ramzxo'ja Rahmatxo'jayevga nasib qilgan bo'lsa, Mirodil Turg'unov va Radion Vuxolov 2-, 3-o'rinnlarni zabt etishdi. 9 – 10 yoshlilar o'tasida Riyat Yanoruyev birinchi, Mirsamir Miryoqubov ikkinchi, Fazliddin Bo'riev uchinchli o'rnlarni egallashdi. Shuningdek, Sanjar Sultonov, Firdavs Tohirov hamda Aziz Murodxonovlar 11 – 12 yoshlilar doirasida uch o'ringa munosib topildi.

NURBEK

YANGI G'ALABALAR SARI

Mirzod Elmurodov murabbiyligida guruh tarbyalaruvchilari bugungi kunga qadar qator to'garak faoliyoti «Umid nihollari» sport musobaqasining tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyatga yo'llanma olishdi.

bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyatga yo'llanma olishdi.

Ozoda Meliyeva singari 83-umumta'lum maktabi jamoa chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Shukrulla
G'ULOM,
Gulandom
UMAROV

Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 3-bolalar va o'smirlar sport maktabida sport gimnastikasi o'quv guruhini tashkil topganiga halli uzoq vaqt bo'lgani yo'q.

2015-yilning 22 – 24-mart kunlari Samarqand shahridagi 42-ixtisoslashtirilgan sport

gimnastikasi maktabida bo'lib o'tgan «Umid nihollari» sport musobaqasini viloyat bosqichida ishtirok etgan 16 ta jamoa ichida sport maktabini a'zolari faxli 2-o'ringa munosib topildi. Ulug'bek Yo'idoshev, Dilyor Ulashev, Nargiza Rasulova hamda Ozoda Meliyeva singari 83-umumta'lum maktabi jamoa chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Shukrulla G'ULOM, Gulandom UMAROV

7

«ONAJONIM TABIAT» insholar va rasmlar tanloviiga Qorachiqda asraymiz seni

Assalomu alaykum! Sizlarga matabimiz qoshida tashkil etilgan tasviriy san'at to'garagi a'zolari nomidan maktub yo'lla-moqdamiz.


To'garak rahbari Muzaffar aka Begmatov mashg'ulotlar jarayonida bizga tasviriy san'at sirlarini o'rgatish bilan birga, ekologiya mavzusida tushunchalar beradi hamda muntazam ijodiy ishlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Biz ularda faol ishtirok etishga harakat qilamiz.

Gazeta sahifalarida «Onajonim tabiat» tanlovi e'lon qilingach, ustozimiz uning matab bosqichini o'tkazdi. Rasmlar ichidan eng saralarini tanlab oldik va sizning e'tiberringizga havola etmoq-damiz.

B i z

tasvirilagan rasmlardagi nojoya tasvirilar


Diyor HAMIYEVA



xatti-harakatlar haqidagi o'quvchilarga o'z ijobjiy ta'sirini o'tkazib,



Oydin ULUG'OVA



Mirkomil HOSILOV




Feruza OTAQULOVA

tabiatga o'zgacha mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishar, degan umiddamiz. Ushbu tasvirlar orqali ona tabiatni asrashga o'z hissamizni q'shamiz, deb:

**Feruza OTAQULOVA (4-«A» sinf),
Mirkomil HOSILOV (6-«B» sinf),
Diyor HAMIYEVA (7-«A» sinf),
Oydin ULUG'OVA (9-«A» sinf),
Samarqand viloyati,
Qo'shrabot tumanidagi
68-umumta'lim maktabi
o'quvchilari**

BO'SH OTIRMAY, BOSH QOTIR!



MAQOLNI O'QING-CHI!

Chizmadagi aylanalardan bosh harfini topib, harflarni ketma-ket o'qing. Bunda ulardan o'zbek xalq maqlolaridan birini bilib olasiz.

Husan ORIPOV tuzdi

8

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

13-aprel 2015

Muassisalar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qarashli bo'limgan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIRH HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'anai XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtaza SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL'o'g'li

Qiz bolaga, qirq hunar ham oz, deb bejiz
aytishmagan. Shu bois bo'lsa kerak,
izlanuvchan, iqtidorli, hamma ishga sidqidildan
yondashuvchi, hunarlari qizlar kun sayin ortib
bormoqda.

MAKTABDA KARVING SAN'ATI

Bu esa, ota-onalar hamda ustozlarni birdek quvontiradi. Lobarxon Mahmudmurodova Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 277-umumta'lim matabining 9-sinfida tahsil oladi. Bolaligidan ona tili va adabiyot faniga juda qiziqadi. O'qishlari a'lo, dugonalar unga havas bilan qarashadi. Chunki u karving san'ati bilan shug'ullanadi. Maktabdag'i to'garakka qatnashib, ustozni Zamira opadan bu san'atning sir-asrorlarini mukammal o'rGANmoqda. Nafaqat meva va sabzavotlardan, balki sovun, sham kabi mahsulotlardan ham turli xildagi san'at asarlarini yaratmoqda. Eng muhimi, Lobar o'zi o'zlashitirib olgan hunarini dugonalariga ham o'rgatmoqda.

Biz Lobarxonga omad tilab, o'z ishining ustasi bo'lishi, ko'zni quvnatadigan ko'plab ijod namunalarini yaratishini kutib qolamiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Bilasizmi?

KOALA - AYIQNING BIR TURIMI?



Koala bolasi ko'rinishidan ayiqni eslatsa-da, aslida bunday emas. U uzoq qarindoshlari - kenguru, vombat, vallabi va opossumlar bo'lgan xaltali hayonlar turiga kiradi.



OCHLIKKA BAR DOSHLI REKORDCHI

Imperator pingvinlari palapon ochilishini ovqatsiz 130 kun kutib o'tirishi bilan ochlikka chidamli tuyalarni dog'da qoldirish ekan. Lekin taxtakana 2 yil, biy o'rgimchak 2,5 yil ovqat yemay yura olishi mumkin. Eng oddiy botqoq toshbaqasi esa ochlikka 5 yil chiday olar ekan. Ha, mana buni rekord, desa bo'ladi.

Dilfuza NIZOMOVA, Nadira NAZAROVA

Gazetamizning 14-sonida chop etilgan «QORAQALPOG'ISTON» krossvordining javoblari:

1. Qush. 4. Anor. 7. Lola. 10. G'olib. 13. Tanka.
2. Ona. 5. Qo'l. 8. Paxta. 11. Injiq. 14. Oltin.
3. Rubob. 6. Anhor. 9. Orol. 12. Suv. 15. Nukus.

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.

Shakli A-3, 2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092

Adadi - 48145

Buyurtma - S 2642